

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”
Rektor _____ Sh.Sirojiddinov

2018-yil 25.08

“KELISHILGAN”
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri _____

2018-yil 28.08

Ro'yxatga olindi: № B.18

2018-yil 28.08



**O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 110000 Pedagogika
Mutaxassisligi: 5112400– O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili

Toshkent-2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 25.08 744 - sonli buyrug'ining 6 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil 18.08 "4" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Azimova I. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrası dots. v.b., filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Dadaboyev H. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori

Adilova S. Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil 05.07.13 -sonli bayonnoma)

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Fan til va adabiyot ta'limida tadqiqot metodlari va metodologiyasini o'zlashtirishga qaratilgan. Fanni o'qish davomida talabalar o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish ilmiy tadqiqot yo'nalishlari va metodlarini o'rganadilar. Shu bilan birga til va adabiyot ta'limidagi nazariy tadqiqotlarning amaliyotga tatbiq etish yo'llari bo'yicha bilimga ega bo'ladilar.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

"O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishdan **maqsad** – talabalarni o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish nazariyasi va amaliyoti bilan tanishtirish, ikkinchi til ta'limidagi umumiy va xususiy pedagogik tamoyillarni o'rgatish.

Fanning **vazifasi** - o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish nazariyasi va amaliyoti asosida hosil qilingan bilimlarni amalda qo'llashdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- ikkinchi til ta'limidagi umumiy va xususiy pedagogik tamoyillarning boshqa tamoyillardan farqini, ikkinchi til ta'limini tashkil etishda o'quv dasturlarini yaratish tamoyillari, baholashning nazariy asoslarini ikkinchi tilni o'qitish nuqtayi nazaridan baholashni **bilishi** kerak;

- talaba o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitilish tarixi haqida muayyan bilimlarga ega bo'lishi, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida O'zbekistonda hamda xorijda o'qitilishning umumiy va farqli jihatlarini tushuntirib bera olish **ko'nikmasiga** ega bo'lishi kerak;

- talaba o'zbek tili grammatikasini ikkinchi til sifatida o'qitishning ona tili grammatikasini o'qitishdan farqli jihatlarini va turli yondashuvli holatlarni farqlash **malakasiga** ega bo'lishi kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

I-mavzu. Ikkinchi til ta'limidagi umumiy pedagogik tamoyillar

Ikkinchi til ta'limi tamoyillarining nazariy asoslari. Asosiy gipotezalar. Tilni o'zlashtirish-o'rganish gipotezasi. Tabiiy tartib gipotezasi. Monitor gipotezasi. "Input" (qabul qilinuvchi ma'lumot) gipotezasi. Affektiv filtr gipotezasi.

2-mavzu. Ikkinchi til ta'limini tashkil etishda o'quv dasturlarini yaratish tamoyillari

O'quv dasturining mazmunini belgilashdagi asosiy tamoyillar. Mavzular ketma-ketligini tanlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan tamoyillar. O'quv jarayoni formati va mavzularning taqdim etilishiga oid tamoyillar. Nazorat va baholashga doir tamoyillar.

3-mavzu. Ikkinchi til bilimini baholashning nazariy asoslari. Xalqaro standartlashgan testlar

Ikkinchi til bilimini nazorat qilishning nazariy asoslari. Til bilimini baholashda muhit (o'qituvchi, o'rganuvchi va vaziyat), ehtiyoj (kamchilik, xohish va zarurat), tamoyillar (o'quv jarayonining qiziqarliligi va o'qituvchining o'rganuvchining ko'rsatkichlari bo'yicha foydali ko'rsatmalar berishi). Qisqa muddatli o'qish jarayonini baholash. Tashhis uchun baholash. Natijalarni baholash. Til malakasini baholash. TOEFL, IELTS.

4-mavzu. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitilishi tarixi

O'zbek tilining maktablarda o'qitila boshlanishi. Ruslarga o'zbek tilining o'qitila boshlanishi. Dastlabki darsliklar. Mustaqillikdan keyin davlat tili ta'limi.

5-mavzu. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish dasturlari

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi dasturlarning mazmun-mundariyasi. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha Davlat ta'lim standarti. Davlat ta'lim standartiga kiritilgan o'zgarishlar.

6-mavzu. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi dasturlari

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi o'rta maktab darsliklari mazmun-mundariyasi. Mavzular bayoni. Matnlar tahlili. Mashqlar va mashg'ulotlar tahlili. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi darsliklar tahlili.

7-mavzu. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi

O'zbek tilining AQSHda o'qitilishi. O'zbek tilining Yevropada o'qitilishi. O'zbek tilining Hindistonda o'qitilishi. Xorijda chiqqan o'zbek tili darsliklari.

8-mavzu. O'zbek tili grammatikasini ikkinchi til sifatida o'qitishga moslab tavsiflashning nazariy asoslari

Ikkinchi til ta'limida grammatikaning o'rni. Kommunikativ yondashuv asosida til o'rgatishda grammatik ma'lumotlarning berilishi. O'zbek tili grammatikasini pragmatik jihatdan tavsifi.

9-mavzu. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar

Til ta'limi tadqiqining nazariy asoslari va tadqiqot metodlari. O'zbek tilini o'qitish jarayoni tadqiqot obyekti sifatida. Til o'rganish va til o'rgatish nuqtayi nazaridan yondashuvlar.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ikkinchi til ta'limi tamoyillarining nazariy asoslari
2. Ikkinchi til ta'limiga oid asosiy gipotezalar
3. O'quv dasturining mazmunini belgilashdagi asosiy tamoyillar
4. O'quv jarayoni formati va mavzularning taqdim etilishiga oid tamoyillar
5. Nazorat va baholashga doir tamoyillar
6. Ikkinchi til bilimini nazorat qilishning nazariy asoslari
7. Qisqa muddatli o'qish jarayonini baholash mezonlari
8. Til malakasini baholash mezonlari
9. O'zbek tilini o'zga tilli guruhlarda o'qitilishiga doir dastlabki darsliklar mazmun-mundariyasi
10. Mustaqillikdan keyin davlat tili ta'limi
11. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi dasturlarning mazmun-mundariyasi
12. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha Davlat ta'lim standarti
13. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi o'rta maktab darsliklari mazmun-mundariyasi
14. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatuvchi darsliklar tahlili
15. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi
16. Xorijda chiqqan o'zbek tili darsliklarining mazmuni
17. Ikkinchi til ta'limida grammatikaning o'rni
18. O'zbek tili grammatikasini pragmatik jihatdan tavsifi

19. Til ta'limi tadqiqining nazariy asoslari va tadqiqot metodlari
20. Til o'rganish va til o'rgatish nuqtayi nazaridan yondashuvlar

V. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular

1. Tilni o'zlashtirish-o'rganish gipotezasi
2. Tabiiy tartib gipotezasi
3. Monitor gipotezasi
4. "Input" (qabul qilinuvchi ma'lumot) gipotezasi
5. Affektiv filtr gipotezasi
6. Mavzular ketma-ketligini tanlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan tamoyillar
7. O'quv jarayoni formati va mavzularning taqdim etilishiga oid tamoyillar
8. Nazorat va baholashga doir tamoyillar
9. Til bilimini baholashda muhit: o'qituvchi, o'rganuvchi va vaziyat omili
10. Til bilimini baholashda ehtiyoj: kamchilik, xohish va zarurat omili
11. Til bilimini baholash tamoyillari: o'quv jarayonining qiziqarliligi va o'qituvchining o'rganuvchining ko'rsatkichlari bo'yicha foydali ko'rsatmalar berishi
12. O'zbek tilining maktablarda o'qitila boshlanishi
13. Ruslarga o'zbek tilining o'qitila boshlanishi
14. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha Davlat ta'lim standartiga kiritilgan o'zgarishlar
15. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi matnlar tahlili
16. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatuvchi mashqlar va mashg'ulotlar tahlili
17. O'zbek tilining AQSHda o'qitilishi
18. O'zbek tilining Yevropada o'qitilishi
19. O'zbek tilining Hindistonda o'qitilishi
20. O'zbek tilini o'qitish jarayoni tadqiqot obyekti sifatida

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Krashen, S. D. (1981). *The "fundamental pedagogical principle" in second language teaching*. *Studia Linguistica*, 35(1-2), 50-70.

2. Larsen-Freeman, D. *Teaching Language From Grammar to Grammaring*. Thomson/Heinle, 2003.
3. Bodrogligeti, András J. E. (2002). *Modern Literary Uzbek: A Manual for Intensive Elementary, Intermediate, and Advanced Courses*. München: Lincom Europa. ISBN 3-89586-695-4. OCLC 51061526
4. Fenyel, Z., and Navracsis, J. (Ed.s) *Second Language Lexical Processes: Applied Linguistic and Psycholinguistic Perspectives*. MPG Books Ltd, Great Britain, 2007.
5. Saville-Troike, Muriel. *Introducing Second Language Acquisition*. Cambridge University Press, The Edinburgh Building, Cambridge, UK, 2005.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ismatullaev, Khaïrulla (1995). *Modern literary Uzbek I*. Bloomington, Indiana: Indiana University, Research Institute for Inner Asian Studies. ISBN 0-933070-36-5. OCLC 34576336
2. Sjöberg, Andrée Frances (1997). *Uzbek Structural Grammar*. Richmond: Curzon Press. ISBN 0-7007-0818-9. OCLC 468438031
3. Мухиддинова Х.С. Ўзбек тилини ўқитишда узлуксизликни таъминлашнинг илмий-методик асослари. Монография. Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008.
4. Мухиддинова Х.С. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитишда узлуксизликни таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. фан... докторлик диссертацияси. Тошкент: 2011. - 390 бет.
5. Мухиддинова Х.С. Русийзабон талабаларга ўзбек тилини интенсив ўргатишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. - Г., 2003. -Б.408-410.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.secondlanguageacquisition.org
2. www.sla.org
3. www.tesol.com